



4. Äsop. *Fabulae Aesopiae*. Leipzig: Teubner, 1906.

“O‘ZMILLIYBANK” AJDA KREDITGA LAYOQATLILIK DARAJASINI OSHIRISHDA GAROV TA’MINOTINI SHAKLLANTIRISH

Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilik darajasini oshirish masalalari va uni samarali amalga oshirishda garov ta’minotini shakllantirish ishlariyoritilgan. Shuningdek, “O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta’minotini shakllantirish yuzasidan xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tijorat banki, kredit, kreditga layoqatlilik, kreditga layoqatlilik darajasi, garov, garov ta’minoti.

ФОРМИРОВАНИЕ ЗАЛОГОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ В АО «УЗМИЛЛИЙБАНК»

Джуманиязов Куванчбек Аमतжонович

независимый научный сотрудник Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения уровня кредитоспособности в Национальном банке Узбекистана и формирования залогового обеспечения для его эффективной реализации. Также даны выводы по формированию залогового обеспечения для повышения уровня кредитоспособности в Национальном банке Узбекистана.

Ключевые слова. Коммерческий банк, кредит, кредитоспособность, уровень кредитоспособности, залог, обеспечение.

FORMATION OF COLLATERAL TO INCREASE CREDITWORTHINESS IN JSC "UZMILLIYBANK"

Jumaniyazov Kuvanchbek Amatjonovich

independent researcher of the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the issues of increasing the level of creditworthiness in the National Bank of Uzbekistan and the formation of collateral for its effective implementation. Also, conclusions are given on the formation of collateral for increasing the level of creditworthiness in the National Bank of Uzbekistan.

Key words. Commercial bank, credit, creditworthiness, creditworthiness level, collateral, collateral.

Bugungi kunda mamlakatimizda moliyaviy tizimni mustahkamlash, banklarning kredit portfellarini sifatli shakllantirish va iqtisodiyotning real sektorini samarali moliyalashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimizda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta’minotini shakllantirish borasida tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 22-apreldagi O‘RQ-1060-son Qonuni qabul qilindi [1]. Ushbu qonun kreditorlarning garovga qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan huquqlari ustuvorligini ta’minlashga, garov narsasini suddan tashqari tartibda realizatsiya qilish tizimini takomillashtirishga, majburiyatlarni garovga qo‘yilgan mol-mulk hisobidan undirish jarayonlarini soddalashtirishga va kredit tashkilotlarining kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Banklarda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta’minotini shakllantirish uchun mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf qilish lozim. Jumladan, mamlakatimizda bank amaliyotlarini tashkil etishda qator muammolar mavjud. Xususan, garov ta’minotini shakllantirish, baholash va tartibga solish jarayonlarida garovning aniqlangan bahosi va real bahosi o‘rtasidagi farqlanish mavjudligi, tartibga solish mexanizmlarining to‘liq ishlamasligi kabilar shular jumlasidandir [2].



“O‘zmilliybank” AJ tomonidan kredit siyosatini takomillashtirish, kredit xavflarini kamaytirish va mijozlarning kreditga layoqatlilik darajasini to‘g‘ri baholashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda garov ta‘minotining to‘g‘ri shakllantirilishi asosiy rol o‘ynaydi. Chunki, garov bank uchun kredit riski yuzaga kelganda moliyaviy zararlarni qoplash imkonini beruvchi asosiy ta‘minot vositasi sifatida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Amaliyotdan ma‘lumki, tijorat banklari ayrim hollarda muammoli kreditlarni garov hisobidan so‘ndirishga majbur bo‘lganda garov bilan bog‘liq egalik huquqi, kadastr tasdiqlagan loyiha, foydalanish imkoniyatlari kabi qator muammolar vujudga keladi [3]. “O‘zmilliybank” AJ tomonidan qo‘llanilayotgan amaliyotda garov ob‘ektlari sifatida ko‘chmas mulk, avtotransport vositalari, texnologik uskunalar, depozitlar, qimmatli qog‘ozlar va boshqa likvid aktivlar keng qo‘llaniladi. Bunda garov qiymatining real bozor bahosiga yaqin holda baholanishi, huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi va tez likvidlanuvchan bo‘lishi kredit portfelining sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim hollarda garov ta‘minoti tizimida kamchiliklar mavjud: garov qiymatining bozorga nisbatan past baholanishi, ayrim aktivlarning likvidligi pastligi, hujjatlarni rasmiylashtirishda kechikishlar va baholovchi tashkilotlar faoliyatidagi nomuvofiqliklar shular jumlasidandir. Bu esa bank faoliyatining samaradorligiga salbiy ta‘sir o‘tkazadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, garov ob‘ektlarini baholashda raqamli texnologiyalar va mustaqil baholovchi kompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish lozim; ikkinchidan, garov likvidligini oshirish uchun tez realizatsiya qilinadigan aktivlarga ustuvorlik berilishi zarur; uchinchidan, hujjatlarni rasmiylashtirish va garov reestrlarini yuritish tizimiga elektron platformalarni keng joriy etish foydali bo‘ladi.

“O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilik darajasini oshirishda garov ta‘minoti shakllantirilgan bo‘lib, uni aniqlash tamoyillari belgilangan (1-jadval).

1-jadval

“O‘zmilliybank” AJda garov qiymatini aniqlash tamoyillari [4]

Garov sifatida taqdim etiladigan mulk turi	Mulkning bozor qiymatini diskontlash orqali garovga qabul qilish uchun belgilangan maksimal qiymati
Kuchmas mulk:	75 % dan ko‘p emas
dan tashqari:	
- issiqxonalar;	30 % dan ko‘p emas
- ipoteka kredita hisobiga sotib olinadigan (quriladigan) uy	100 % miqdorida
Avtotransport vositalari:yuk mashinalari, avtobuslar va mikroavtobuslar, jumladan:	
- chiqarilish muddati 1 yildan 3 yilgacha	70% dan ko‘p emas
- chiqarilish muddati 3 yildan 5 yilgacha (<i>chiqarilgan vaqti 5 yildan ortig‘i qabul qilinmaydi</i>)	60 % dan ko‘p emas
jismoniy shaxslar bank kredita hisobiga sotib oladigan yengil avtoulavlar	100 % miqdorida
Maxsus va qishloq xo‘jalik mashinalari, jumladan:	
- chiqarilish muddati 1 yilgacha	60 % dan ko‘p emas
- chiqarilish muddati 1 yildan 3 yilgacha	50 % dan ko‘p emas
- chiqarilish muddati 3 yildan 5 yilgacha (<i>chiqarilgan vaqti 5 yildan ortig‘i qabul qilinmaydi</i>)	40 % dan ko‘p emas
Ishlab chiqarish uskunalar, jumladan:	
- chiqarilish muddati (ishlab chiqarilish) 3 yilgacha	50 % dan ko‘p emas
- chiqarilish muddati (ishlab chiqarilish) 3 yildan 5 yilgacha (<i>chiqarilgan vakti 5 yildan ortig‘i qabul qilinmaydi</i>)	40 % dan ko‘p emas
Qimmatli qog‘ozlar, shu jumladan	
"Toshkent" Respublika fond birjasida ro‘yxatga olingan aksiyalar	80 % dan ko‘p emas



Davlat qimmatli qog‘ozlari	qimmatli qog‘ozning amal qilish muddatiga 100 % dan ko‘p emas
Tijorat banklarining depozit sertifikatlari	muddatiga qarab ko‘pi bilan 100 %, <i>(kredit valyutasida)</i>
Aylanmadagi tovarlar (xom ashyo va materiallar shaklidagi tovar-material zaxiralari, tugatilmagan ishlab chiqarilish va tayyor mahsulotlar) uzoq vaqt saqlash muddati bilan	30 % dan ko‘p emas (ombor hisobi qiymatidan)
Naqd pul olish huquqlari garovi, shu jumladan:	Oxirgi bir yil davomida garovga qo‘yuvchining o‘rtacha oylik aylanmasining 50 % dan oshmagan holda
Pudrat tashkilotlari tomonidan kvartiralarini (uy-joylarni) sotishdan	kvartirani sotish qiymatining 50 % dan oshmagan holda
Qishloq xo‘jaligi ekinlari, bog‘lar va uzumzorlar yetishtirish uchun berilgan yerlardan foydalanish huquqi	60 % dan ko‘p emas
Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan xususiy lashtirilgan yer maydonlariga bo‘lgan huquq	40 % dan ko‘p emas
"O‘zmilliybank" AJga joylashtirilgan depozit - milliy valyutada - chet el valyutasida	100 % dan ko‘p emas (depozit miqdoridan) 100 % dan ko‘p emas (depozit miqdoridan) <i>depozit valyutasidagi kreditlar bo‘yicha va depozitdan boshqa valyutadagi kreditlar bo‘yicha haftalik qayta baholash sharti bilap</i>
Oltin va boshqa qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik buyumlari	90 % dan ko‘p emas

“O‘zmilliybank” AJni garov qiymatini aniqlash tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi "Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki" aksiyadorlik jamiyatining Kredit siyosatiga 1-ilova sifatida belgilangan. Mazkur tamoyillar asosida “O‘zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilik darajasini oshirish borasida garov ta’minotini shakllantirish shakllantirilib, buning uchun bank mijozlarining garov mol-mulkulari hisob-kitob qilingan. Bu borada “O‘zmilliybank” AJga tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlar hajmi 2021-2022yillarda pasaygan, 2023-yildan boshlab esa tiklanish jarayoni boshlangani kuzatilmoqda. Hududlar kesimida o‘zgarishlar turlicha: Toshkent shahri va Navoiy viloyati – ijobiy, boshqa ko‘pchilik hududlar esa pasayish yo‘nalishiga ega. Tahlil qilingan ko‘rsatkichlar asosida, respublika iqtisodiyotida hududlararo nomutanosiblik mavjudligini ko‘rish mumkin. Bu esa mintaqaviy rivojlanish siyosatini muvozanatlashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda “O‘zmilliybank” AJ tomonidan ajratilayotgan kreditlarning asosiy maqsadi iqtisodiy faol subektlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirishdan iborat bo‘lmoqda. Shu bilan birga, bank har bir qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini sinchiklab o‘rganadi. Ushbu jarayonda eng muhim vositalardan biri **garov ta’minoti** hisobga olinadi. Garov kreditni o‘z vaqtida qaytarmaslik xavfi yuzaga kelganda bankning moliyaviy zararini kamaytirishga xizmat qiladigan mol-mulk yoki aktiv bo‘lib qo‘llaniladi.

“O‘zmilliybank” AJda garov ta’minotini shakllantirishning ustunliklari quyidagi yo‘nalishlarga ajratiladi:

- **kredit olish imkoniyatining ortishi.** Garov mavjudligi kredit oluvchining bank oldidagi ishonchliligini oshiradi. Garov ta’minoti bo‘lgan mijozlar bankdan yuqori miqdordagi kreditni olish imkoniga ega bo‘ladi. Ayniqsa, yirik loyihalar yoki investitsiyalarni moliyalashtirishda bu juda muhim omildir.

- **past foiz stavkasi.** Garov orqali ta’minlangan kreditlar odatda pastroq foiz stavkasi bilan beriladi, chunki bank uchun bunday kreditlar kamroq xavf tug‘diradi. Bu esa qarz oluvchining umumiy xarajatlarini kamaytiradi.



- **bank uchun xavfsizlik mexanizmi.** Garov mavjud bo’lgan holatlarda bank kreditni qaytarish borasida o’zini ancha ishonchli his qiladi. Agar mijoz kreditni o’z vaqtida qaytara olmasa, bank garovni sotish orqali zararni qoplash imkoniyatiga ega bo’ladi.

- **moliya intizomini oshiradi.** Qarz oluvchi o’z mulki garovda bo’lganidan keyin kredit majburiyatlariga mas’uliyat bilan yondashadi. Bu esa o’z navbatida, to’lov intizomi va kredit madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, “O’zmilliybank” AJda garov ta’minotining kamchiliklari esa quyidagi yo’nalishlarga ajratiladi:

- **barcha mijozlar uchun teng imkoniyat emas.** Garov ta’minotini talab qilish ba’zida yosh tadbirkorlar, kichik biznes egalari yoki mulki yo’q fuqarolar uchun kredit olish imkoniyatini cheklaydi. Bu esa moliyaviy tengsizlikka olib keladi.

- **garovni baholashdagi qiyinchiliklar.** Garov sifatida taqdim etilayotgan mulkning bozordagi haqiqiy qiymatini aniqlash oson emas. Ko’p hollarda banklar garov bahosini ehtiyotkorlik bilan pastroq belgilaydi, bu esa beriladigan kredit miqdorining kamayishiga olib keladi.

- **mulkni yo’qotish xavfi.** Agar qarzдор kreditni to’lamasa, bank garovga qo’yilgan mol-mulkni musodara qilishi mumkin. Bu esa mijozlar uchun salbiy ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlariga olib keladi, ayniqsa, garov yagona uy-joy yoki asosiy daromad manbai bo’lsa.

- **yuridik va ma’muriy murakkabliklar.** Garov bilan bog’liq hujjatlarni tayyorlash, notarial tasdiqlash, ro’yxatdan o’tkazish va sud orqali mulkni undirib olish jarayonlari ko’p vaqt va xarajat talab qiladi. Bu jarayon ayrim hollarda kredit olish jarayonini sekinlashtiradi.

Fikrimizcha, “O’zmilliybank” AJ, boshqa banklar singari, kreditlashda turli garov turini qabul qiladi. Bu borada “O’zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilikni oshirishda garov ta’minotini shakllantirish quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- kredit oluvchining moliyaviy holati va loyiha tahlili bilan birga, potensial garov obyektlarini batafsil o’rganish;

- mulkning huquqiy tozaligi va likvidligini ta’minlash;

- garov qiymatining kredit summasidan yuqori bo’lishini ta’minlash;

- huquqiy jihatdan mustahkam tan olinadigan garov shartnomalarini tuzish;

- muntazam monitoring orqali garovning qiymati va holatini nazoratda saqlash.

Mazkur jarayonlar bankning kredit portfelini barqarorlashtirish va mijozlarga ishonchli kreditlash shartlarini taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy bank tizimida alternativ ta’minot shakllari (kafillik, sug’urta, kredit tarixining bahosi, biznes-reja asosida qaror qabul qilish) kabilardan ham kengroq foydalanish, moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlash hamda barcha qatlamlar uchun teng moliyaviy imkoniyatlar yaratish muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, garov ta’minoti bank va qarz oluvchilar o’rtasidagi munosabatlarda muhim rol o’ynaydi. U kreditga layoqatlilik darajasini oshiradi, bank xavfini kamaytiradi va kredit mablag’ining to’g’ri qaytishini ta’minlaydi. Biroq, garov talab qilinishi ba’zi holatlarda kredit olish imkoniyatlarini cheklab qo’yadi. Shuningdek, baholashdagi aniqlik, yuridik xarajatlar va mulkni yo’qotish xavfi ham ushbu tizimning salbiy jihatlari sirasiga kiradi. Shundan kelib chiqib, “O’zmilliybank” AJda kreditga layoqatlilikni oshirishda garov ta’minotini samarali shakllantirish bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, kredit xavflarini kamaytirish va mijozlar bilan uzoq muddatli ishonchli hamkorlik o’rnatishning muhim omillaridan biridir. Ushbu yo’nalishdagi islohotlar va takomillashtirish choralari bankning kredit siyosatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining 2025-yil 22-apreldagi “Kreditlarning garov bilan ta’minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’RQ-1060-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/-7488160>
2. Abdikarimova D.R. Bank kreditlari garov ta’minotini baholashda xorijiy amaliyotning ayrim jihatlari. // “Iqtisodiyotning raqamlashuvi sharoitida bank-moliya tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya tezlari to’plami, O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – T., 2023. - 2 b.
3. Taylaqova Z.A. Bank kreditlari garov ta’minotini baholashni takomillashtirish yo’llari. // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, Volume1, Issue1, 2021, February. - 85 b.



4. Ўзбекистон Республикаси "Ташки иқтисодий алоқалар миллий банки" акциядорлик жамиятининг Кредит сиёсати 1-илова.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI SIYOSATI

Lapasova Sarvinoz

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabalari

e-mail:sarvinolzlapasova11@gmail.com

Abdusaidova Muxlisa

e-mail:muxlisaabdusaidova9@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasining axborot xavfsizligi siyosati davlat va jamiyat hayotida axborot resurslarini himoya qilish, raqamli infratuzilmani mustahkamlash va kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Bu siyosat axborot texnologiyalari sohasida milliy manfaatlarni himoya qilish, davlat sirlarini asrash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga asoslangan.

Kalit so'zlar: axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, raqamli infratuzilma, davlat sirlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlar, milliy manfaatlar, O'zbekiston Respublikasi, prezident, axborot siyosati, raqamli transformatsiya.

ПОЛИТИКА ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. Политика информационной безопасности Республики Узбекистан является стратегическим направлением, направленным на защиту информационных ресурсов в жизнедеятельности государства и общества, укрепление цифровой инфраструктуры и обеспечение кибербезопасности. В основе этой политики лежат защита национальных интересов в сфере информационных технологий, обеспечение государственной тайны, защита персональных данных и развитие международного сотрудничества в области кибербезопасности.

Ключевые слова: информационная безопасность, кибербезопасность, цифровая инфраструктура, защита государственных секретов, персональные данные, национальные интересы, Республика Узбекистан, президент, информационная политика, цифровая трансформация

INFORMATION SECURITY POLICY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation. The information security policy of the Republic of Uzbekistan is a strategic direction aimed at protecting information resources in the life of the state and society, strengthening digital infrastructure, and ensuring cybersecurity. This policy is based on protecting national interests in the field of information technologies, safeguarding state secrets, protecting personal data, and developing international cooperation in the field of cybersecurity.

Keywords: information security, cybersecurity, digital infrastructure, protection of state secrets, personal data, national interests, Republic of Uzbekistan, president, information policy, digital transformation.

Axborot xavfsizligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Axborot xavfsizligini ta'minlash mamlakat suverenitetining asosi va zamonaviy davlat boshqaruvining ajralmas qismidir". Shu sababli, davlat axborot tizimlarini himoyalash maxsus qonun va chora-tadbirlar bilan tartibga solinayotir. Shavkat Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra: "Davlatimiz mustaqilligining mustahkam poydevori sifatida axborot xavfsizligini ta'minlash, milliy iqtisodiyotimizni, jamiyatimizni zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali himoya qilish eng dolzarb vazifalardan biri."

Globalashuv jarayonida axborot texnologiyalari har bir sohada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, internet xizmatlari va raqamli kommunikatsiyalar inson faoliyatining barcha jabhalariga kirib bormoqda. Shu bilan birga, axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarni o'g'irlash va kiberhujumlar kabi xavf-xatarlar ham ortib bormoqda. Shu sababli axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi O'zbekiston Respublikasida milliy xavfsizlik siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi